

XORIJIY MAMLAKATLARDA YOSHLAR SUBMADANIYATI BILAN PEDAGOGIK ISH OLIB BORISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Xasanova Marxabo Turayevna

Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi direktori

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ С МОЛОДЕЖНОЙ СУБКУЛЬТУРОЙ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Хасанова Мархабо Тураевна

Директор Академического лицея Ташкентского
государственного университета

THE MAIN DIRECTIONS OF PEDAGOGICAL WORK WITH YOUTH SUBCULTURE IN FOREIGN COUNTRIES

Khasanova Markhabo Turaevna

Director of Academic Lyceum of Tashkent State Transport
University



marxabo@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xorij amaliyotda yoshlar submadaniyatlari vakillari bilan ijtimoiy-pedagogik ish olib borish ixtisoslashgan holda ekanligi, ularning faoliyati g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish va ijobiy ijodkorlikni rag'batlantirishga qaratilganligining ilmiy asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, korreksion psixologiya, professional yordam, ko'cha o'qituvchilari, majburiy ijtimoiy-pedagogik ish, skinxedlar, panklar.

Аннотация: В статье анализируется научное обоснование того, что социально-педагогическая работа с представителями молодежных субкультур в зарубежной практике носит специализированный характер, их деятельность направлена на предупреждение антисоциального поведения и поощрение позитивного творчества.

Ключевые слова: поведение, коррекционная психология, профессиональная помощь, уличные учителя, обязательные социально-педагогические работы, скинхеды, панки.

Abstract: The article analyzes the scientific basis of the fact that socio-pedagogical work with representatives of youth subcultures in foreign practice is specialized, their activities are aimed at preventing anti-social behavior and encouraging positive creativity.

Keywords: behavior, correctional psychology, professional assistance, street teachers, mandatory social and pedagogical work, skinheads, punks.

Kirish. Ta'lim amaliyotida zamonaviy pedagog yoshlar submadaniyatlarining turli oqimlari vakillari bilan aloqada bo'lishi lozim, ayniqsa, bu hozirgi vaqtda talabalar motivatsiyasi, auditoriyani boshqarish, ta'lim standartlari, intizom va xavfsizlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Submadaniyatlarni o'quv jarayonini modernizatsiya qilish imkoniyati sifatida ko'rib, amaliyotchi pedagoglar yoshlar hamjamiyatlarining ijobiy imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi. Ushbu guruhlarining paydo bo'lish sabablarini, mavjudligining tuzilishi va maqsadlarini anglab, pedagoglar ularni o'z tarafdorlariga aylantira oladilar, salbiy ko'rinishlarini yanada konstruktiv yo'nalishga yo'naltiradilar. Yoshlar submadaniyatlari bilan ijtimoiy-pedagogik ish olib borish bo'yicha to'plangan xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xorijiy amaliyotda yoshlar submadaniyatlari vakillari bilan ijtimoiy-pedagogik ish olib borish ixtisoslashgan holda bo'lib, ularning faoliyati g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish va ijobiy ijodkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan. So'nggi paytlarda muqobil ta'lim dasturlari keng tarqaldi, ularning asosiy maqsadi xulq-atvorni tuzatish, ta'lim-tarbiyani integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Hozirda muqobil dasturlarning uch turi mavjud bo'lib, birinchi tur maktablar o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirishda, boshqarish va o'qitishda innovatsion strategiyalardan foydalanadi. Ikkinchidan, maktablar xulq-atvorni o'zgartirish va tartib-intizomga e'tibor qaratishadi, odatda o'quvchilarni mazkur dasturga "so'nggi imkoniyat" sifatida yo'naltirishadi. Uchinchidan, maktablar faoliyati akademik yoki xulq-atvor muammolarini yoki ikkalasini ham rehabilitatsiya qilish yoki tuzatishga qaratilgan. Bunda e'tibor tartib-intizomga emas, balki profilaktika ishlariga qaratiladi [1].

Adabiyotlar tahlili. Maktab dasturi salbiy submadaniyatlarga xos bo'lgan, yoshlar tomonidan ma'qul ko'rilgan qadriyatlardan va tanqidiy P.Freyre pedagogikasi elementlaridan shaxsga yo'naltirilgan dialoglar va innovatsion o'quv dasturiga kiritilgan kurslarda "generativ" mavzulardan foydalanishga asoslangan.

Ushbu texnologiyalarni joriy etish orqali maktab o'quvchilarining yoshlar qarshilik

ko'rsatadigan hukmron madaniyatning tarkibiy qismlarini tushunish va anglash uchun tanqidiy ongini shakllantiradi va suhbatdoshlarni o'zgarishlarning faol agentlariga aylantiradi, bu esa ijtimoiy o'zgarishlarning boshlanishidir [2]. Judit Leonard muqobil ta'limning ayrim kamchiliklarini, masalan, moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar, ta'lim vazirligi tomonidan o'rnatilgan dasturga cheklovlar va hokazolarni ta'kidlaydi. Ammo, bizning fikrimizcha, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari bilan uning kombinatsiyasi samaradorligini pasaytirmaydi. Judit Leonard ayniqsa salbiy yoshlar submadaniyatlari bilan ishlash kursining muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchilar uchun salbiy submadaniyatni "qadrsizlantirish" yo'llarini topish, yoshlar bilan ishlashda ularning dars jarayonidagi salbiy ta'sirini minimallashtiradigan intizomiy strategiyalar va o'qitish usullarini topish juda muhimdir. Shunday qilib, biz ko'rib chiqqan muqobil maktabda ikkita universitet va ularning o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari bilan aloqalar yo'lga qo'yilgan va maktab o'quvchilari metodologiya bo'yicha ma'lum kurslarga "mehmon o'qituvchilar" sifatida taklif qilingan [3].

Xavf guruhidagi yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun maxsus o'quv kurslarini joriy etish, ixtisoslashtirilgan muassasalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Faqatgina korreksion psixologiya va ijtimoiy pedagogikaning umumiy asoslarini bilgan holda, salbiy yoshlar submadaniyatlari vakillariga samarali yordam berish mumkin emas. Bu toifadagi yoshlar bilan bevosita ishlashning innovatsion usullarini izlash zarur va bu usullarni ilmiy adabiyotlarda o'qishdan ko'ra ularni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Ixtisoslashgan muassasalar o'rtasidagi hamkorlik ushbu texnologiyalarni amalda, submadaniyat a'zolari bilan real ish olib borishda, ikkala tomonni (o'qituvchi va o'quvchi) o'zgarishlarning faol agentiga aylantirishga yordam beradi.

Ushbu hodisaga sabab bo'lgan AQShda yoshlar submadaniyatlari bilan ijtimoiy-pedagogik ish tajribasi to'plangan. Yoshlarni g'ayri ijtimoiy submadaniyatlarga jalb qilish bo'yicha Amerika tajribasi, birinchi navbatda, yoshlarda ijtimoiy

begonalashuv hissini rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslikdir [4].

Muhokama. Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh va Kanadada yoshlar submadaniyatlari bilan pedagogik ish tajribasini o‘rganishga murojaat qilish quyidagi sabablarga bog‘liq. Birinchidan, bular oliy ta‘lim tizimida ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogika institutlari tashkil etilgan mamlakatlardir. R.V.Kornyushina ta‘kidlaganidek. Buyuk Britaniya va AQSh ijtimoiy ish faoliyatning alohida turi sifatida shakllangan va “kasbiy asosda joylashtirilgan” birinchi mamlakatlardir [5]. Ikkinchidan, ular 1960-yillardan boshlab yoshlarning jamiyatga ziddiyatli integratsiyalashuviga ko‘maklashish bo‘yicha yoshlar siyosatining yo‘nalishlarini shakllantirdilar, chunki aynan shu davrda yoshlar submadaniyati keng tarqaldi va G‘arb jamiyati g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli yoshlardan xavotirlana boshladi. Bundan tashqari, tanlangan davlatlar o‘rtasida yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha hamkorlik amalga oshirilmoqda. Uchinchidan, ko‘rib chiqilayotgan mamlakatlarda yoshlar siyosati sohasidagi qonunchilik muvaffaqiyatli ishlamoqda. (Germaniya tomonidan 1991 yilda qabul qilingan “Bolalar va yoshlarga yordam to‘g‘risida”gi qonun; 2004-yildan Buyuk Britaniyaning xuddi shu nomdagi qonuni; Kanadaning yoshlar o‘rtasida g‘ayri ijtimoiy xulq-atvorning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan “Jinoyatchilikni profilaktika qilishning milliy strategiyasi) hamda yoshlarga yordam va qo‘llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda[6]. To‘rtinchidan, “muammoli” yoshlar bilan ishlash ushbu mamlakatlardagi yoshlar bilan majburiy ijtimoiy-pedagogik ish olib borishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Uydan yoki maktabdan qochgan, zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan, ota-onasi tomonidan tashlab ketilgan, giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste‘mol qiladigan, yoshlarning salbiy submadaniyatlarida ishtirok etadigan yoshlar xavf ostida bo‘lgan yoshlar toifasi hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda salbiy yo‘nalishdagi yoshlar submadaniyatlari bilan ishlashning o‘ziga xos jihati ko‘chada ijtimoiy ish olib borish yoki yoshlar bilan mobil ishlashdir. Ko‘cha ijtimoiy ishi 1920-yillarning oxirida AQShda paydo bo‘lgan. Yirik shaharlarda yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik ko‘payishi munosabati bilan tegishli ijtimoiy-

pedagogik dasturlar ishlab chiqilgan. Bunday dasturlarning obyektlari ijtimoiy himoya tashkilotlari e‘tibordan chetda qolgan o‘smirlar guruhlar yoki ko‘cha to‘dalari edi. Bir muncha vaqt davomida ijtimoiy soha xodimlari bevosita o‘smirlar uchrashadigan va vaqt o‘tkazadigan joylarda, asosan ko‘chalarda maslahat berishishlarini olib borishdi. XX-asrning ikkinchi yarmida ko‘cha ijtimoiy ishi deyarli barcha G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida qo‘llanila boshlandi. Germaniya va Buyuk Britaniya mamlakatlarida mobil ish konsepsiyasi ishlab chiqilib, g‘ayri ijtimoiy, jinoiy xatti-harakatlar va spirtli ichimliklarni suiste‘mol qiladigan turli yoshlar submadaniyatlariga nisbatan qo‘llanilgan [7].

Hozirgi vaqtda ko‘cha ijtimoiy ishi xorijiy mamlakatlarda tan olingan va unga ehtiyoj katta. Buyuk Britaniyada «Detached Youth work»- “marginal yoshlar bilan ishlash” ommalashgan bo‘lsa, AQShda - «Outreach Youth work»- (“yoshlar bilan mobil ijtimoiy ish olib borish”), Niderlandiyada-«Street Corner Work» - (“chorrahalarda ishlash”), Fransiyada - «Travailleurs de la Rue» (“ko‘chada ishlovchilar”), Germaniyada - «Street work» (“ko‘cha ishi”) [8]. Xorijdagi yoshlar bilan zamonaviy mobil ish-bu xavf ostida bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini kamaytirish va ularning jamiyatdan ijtimoiy begonalashuvini bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik dastur.

Natijalar. Xavf ostidagi yoshlarga giyohvandlar, zo‘ravon ko‘cha to‘dalari, ko‘chalarda yashovchi bolalar va yoshlar, skinxedlar, panklar va boshqa salbiy yoshlar submadaniyatlari a‘zolari kiradi. Mobil ish yoshlar yig‘iladigan joylarda (bekatlar, yer osti yo‘laklari, bog‘lar va boshqalar) va mikrohududlardagi ishlar hamda uch darajadagi yordamni o‘z ichiga oladi: individual yordam, guruhlar va jamoalarda ishlash[10]. Individual yordam ijtimoiy pedagoglar tomonidan muammolarga duch kelgan yoshlar uchun individual maslahatlar shaklida taqdim etiladi. U inqirozli vaziyatlarda tezkor aralashuvni ham, uzoq muddatli maslahatlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Huquqbuzarlik sodir etgan yoshlar submadaniyati ishtirokchilari bilan ishlashda ijtimoiy pedagoglar ixtisoslashtirilgan ijtimoiy markazlar, huquq, adliya organlari kabilar bilan o‘zaro hamkorlik qiladilar.

Guruhlar, to‘dalar va yoshlar submadaniyatlari bilan ishlashga alohida e‘tibor

beriladi. Ishlar asosan yoshlar hududida olib boriladi. Ijtimoiy pedagoglar yaxshi bilishadiki, agar shaxsning asosiy ehtiyojlari oilada yoki ta'lim muassasasida qondirilmasa, unda yoshlar unga qo'llab-quvvatlash, xavfsizlik, ishonch, shaxs sifatida uning qadr-qimmatini hissini beradigan guruhga qo'shilishi-muvaffaqiyatli ijtimoiylashishi uchun zarur bo'lgan hamma narsaga intiladi. Shuning uchun mobil ish konsepsiyasida qo'llaniladigan yondashuvlar "shubhali" ko'cha guruhlari bilan ishlashning repressiv shakllariga to'g'ridan-to'g'ri ziddir: o'smirlarning bo'sh vaqtini tashkil qilish uchun joylar ajratilgan, bo'sh vaqtni samarali tashkil etish jarayonida munosabatlarni shakllantirish bo'yicha uzoq muddatli ishlar olib borilmoqda. Asosiy urg'u barcha guruh a'zolarining ijobiy potensialini kuchaytirish va salbiy potensialni zaiflashtirishga qaratilgan. Yoshlar bilan mobil ish olib borishda yoshlar guruhining ijobiy resurslari, salohiyatidan pedagogik asos sifatida foydalaniladi, ulardan har bir alohida yoshning manfaati yo'lida foydalaniladi.

Ijtimoiy pedagoglar guruhlar bilan ishlashni tashkil qilishda ular bilan o'zaro munosabatlarning muayyan strategiyalarini tanlaydilar. Faoliyat yoshlarning madaniyatini qabul qilish va hurmat qilish, g'amxo'rlik, guruh faoliyatiga qiziqish, o'zgaracha munosabatda bo'lishga asoslangan. Ishtirokchilarning ishonchini qozonish va ish jarayonida do'stona muhit yaratish muhim bosqichdir; bu hamkorlik, muloqot qobiliyatlari va boshqalarni rivojlantirish uchun mashqlar kabi ma'lum texnikalar orqali guruh a'zolarining salbiy resurslarini kamaytirish va ijobiy resurslarni kuchaytirishga yordam berish uchun zarurdir. Xavf ostidagi yoshlar bilan ishlash bo'yicha amaliy qo'llanma ijtimoiy pedagoglarning emo va gotlarning yoshlar madaniyatlari bilan mobilishlashi variantlaridan birini tavsiflaydi. Faoliyat yoshlar submadaniyatlari ishtirokchilari uchun sevimli uchrashuv joyida – metrostansiyalaridan birida amalga oshirildi. Maqsadli guruhda 46 nafar ishtirokchi bor edi, guruh bilan ishlash muntazam ravishda bir xil mutaxassislar tomonidan olib borildi. Ijtimoiy pedagoglar tomonidan giyohvand moddalarni iste'mol qilish, keyingi davolanish, yoshlar klublarida ishlaydigan yordam xizmatlari va boshqa mavzular bo'yicha axborot soatlari

o'tkazildi. Submadaniyat a'zolari politsiya tomonidan ta'qibga uchragan hollarda, mutaxassislar ularga huquqni muhofaza qilish organlari bilan muloqot qilishda yordam berishdi. Asta-sekin, ijtimoiy pedagoglar guruhga yordam va qo'llab-quvvatlash orqali uning ishonchini qozonishga muvaffaq bo'lishdi va inqirozli vaziyatlarda guruh a'zolarining o'zlari ularga yordam so'rab murojaat qilishdi [6].

Xulosa. Shunday qilib, guruh bilan emotsional aloqa o'rnatish orqali mutaxassislar xavf ostida bo'lgan yoshlarning xulq-atvoriga ta'sir qilish imkoniyatini qo'lga kiritadilar, "yetib bo'lmaydigan narsaga erishadilar". Bu, o'z navbatida, nomaqbul munosabat va xatti-harakatlarning guruh ichida ham, mikro jamiyatda ham - ko'chada va submadaniyat a'zolari to'planadigan jamoat joylarida tarqalishini nazorat qilish va oldini olish imkonini beradi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, yoshlar submadaniyatlari vakillari bilan ijtimoiy-pedagogik ish bo'yicha xorijiy tajriba mahalliy ish olib borish uchun muhimdir. Tadqiqotchilar va ijtimoiy pedagoglar erishgan natijalardan mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi ishlarning dastur va uslublarini ishlab chiqishda foydalanishlari mumkin. Biroq, xorijiy yutuqlarning barcha qiymatiga qaramay, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni joriy etish talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Raywid M.A. Alternative schools: The state of the art // Educational Leadership. - 1994. - P. 26-34.
2. Leonard J. How to integrate negative youth subcultures into secondary classroom practice using critical pedagogy: Canada, 1998. - 102 p.
3. Clark C.M. Deviant adolescent subcultures: Assessment strategies and clinical interventions // Adolescence. - Summer 1992. - Vol. 27. - Issue 106. - 283 p.
4. Корнюшина Р.В. Зарубежный опыт социальной работы.—Владивосток: Дальневосточный университет, 2004.—С.73-74..
5. Stam C. et al. Interview met Job Cohen // Zorg + Welzijn. - 5 July 2007.
6. Jeffs T., Smith M.K. The problem of «youth» for youth work // Youth and Policy. - 1999. - № 62. - P. 45-66.